


Surxondaryoda “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun loyihasi muxokamasiga bag’ishlangan tadbirlar qizg’in davom etmoqda.



Surxondaryoda “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun loyihasi muxokamasiga bag’ishlangan tadbirlar qizg’in davom etmoqda.

Galdagi muhokama Termiz shahridagi "Sehri qasr" nomli DXH asosidagi MTT faollari ishtirokida bo’lib o’tdi. Tadbirda OzLiDeP Siyosiy Kengash Ijroiya qo’mitasi raisi A.Xaitov, OzLiDeP Surxondaryo viloyati Kengashi raisi A.Ro’zievlar tomonidan Konstitutsiyaga kiritilayotgan o’zgarishlarning tub mohiyatida yotadigan inson qadri, uning barcha huquq va erkinliklarini ta’minlash, uning sha’ni, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy ximoya qilish hamda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning Konstitutsiyada aks ettirilayotgani yuzasidan ma’lumot va tushunchalar berildi. Savol-javoblar asosida bo’lib o’tgan muloqotda mahalla faollari Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalarini hamda qo’llab quvvatlashlarini bildirishdi.





